

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

-maktab tarix fani o'qituvchisi

Husanova Sayyoraxonning

Tangalar – tarix guvoxi

mavzusida

bir soatlik dars ishlamasi.

Mavzu : **Tangalar – tarix guvoxi**

Darsning texnologik xaritasi

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi

Usul: "insert".
Shakl: individual ishlash, kichik guruhlarda ishlash.
Nazorat: kichik guruhlar nazorari krasvord.
Baholash: o'quvchilarni rag'batlanirish.

Darsning maqsad va vazifalari

Ta'limiy maqsadi: savdo –soqiqning rivojlanishini o'quvchilarga tushuntirish.
Tarbiyaviy maqsadi: vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
Rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tarixiy bilim ko'nikmalarini rivojlantirish

Dars rejasi

Tashkiliy qism 2 daqiqa
O'tilgan mavzuni mustahkamlash 15 daqiqa
Yangi mavzuning bayoni 16 daqiqa
Yangi mavzuni mustahkamlash 8 daqiqa
Baholash 2 daqiqa
Uyga vazifa 2 daqiqa

Insoniyat yer yuzida paydo bo'libdiki, bir-biri bilan muloqotda bo'ladi. O'zaro tovar ayirboshlash oddiy voqea hisoblanadi. Odamzot oz narsaga qanoat qilib yurgan, ayirboshlash har zamon-har zamonda, tasodifiy bo'lgan zamonlarda bu tabiiy hol edi; mehnatning bir mahsuli boshqa bir mahsuliga ayirbosh qilinar edi. Ammo vaqt o'tgani sari mehnat taqsimoti ayirboshlash uchun tobora ko'plab mahsulotlar ishlab chiqara boshladi. Buning natijasida mol ayirboshlashning eski usuli beo'xshov va noqulay bo'lib qolgan. Eski usul jamiyat taraqqiyotiga xalaqit bera boshladi. Mehnat taqsimotining rivojlanishi tovar ayirboshlashni qabila orasidagina emas, turli qabilalar orasiga ko'chdi.

Endi yuzlab xil tovarlarni ayirbosh qilingan chog'da savdoni qanday olib borish kerak? Nimaga qancha berish kerak? va hokazo savollar tug'ilish aniqdir.

Zaruriyat muvozanatni saqlovchi vositachi mol-tovarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu tovar o'z-o'zidan, odamlar hohishidan qat'iy nazar paydo bo'ldi. Bu hamma jon deb almashtiradigan mol-tovar bo'lib, u boshqa mol-tovarni bavholashga yordam berdi va mol ayirboshlashni engillashtirdi.

Tovar qiymati nima bilan o'lchanadi? Hamma vaqt ham uni ishlab chiqarishga ketgan vaqt bilan o'lchab o'tirmaysizku? Bu juda murakkab narsa.

Biron tovarni olib, uni shartli qiymat birligi qilib, boshqa mollarning qiymatini o'shanga qarib belgilasa bo'lmaydimi? Masalan, bu birlikni qo'y deyaylik. Shunda tovarlarning nisbiy narxi darhol osonlashadi. Odamlar bir dona qo'y = 1 baliq to'riga = 1 ho'kiz terisiga = 2 bolta = 4 sopol kuvachaga va hokazolarga teng ekanini o'z tajribalaridan bilishardi.

Lekin shartli qiymat birligi ham odamlar o'rtasidagi tovar ayirboshlash ishini engillashtirmagan. Chunki turli xalqlarda pul vazifasini turli mahsulotlar o'tagan. Boshda u tasodifiy hol bo'lib, bir tovar ikkinchisiga ayirbosh qilinar edi. Ammo bu tovarlar hamisha ham barcha buyumlar orasida eng zarur yoki eng bozori chaqqon tovar bo'lib kelgan. Bu maqsad uchun teri juda bop edi. Teri yengil bo'lib, uzoq vaqt saqlanardi. Teridan kiyim-bosh, poyabzal tiksa, kapa ustiga qoplasa ham bo'lardi. Qadimgi Sparta, Rim, Karfagen kabi qadimiy davlatlarda ham teri pul vazifasini o'tagan. Qadimiy Skandinaviyadagi xalqlarining yozma yodgorliklarida yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan, bu erlarda ham teri pul vazifasini o'tagani hikoya qilinadi. Ularni xarid paytida to'lashar, jarima ham teri bilan o'talar edi. O'sha paytlardagi qonun majmuasida birovni haqorat qilgan – tulki terisi, shapaloq urgan – savsar terisi, jarohat yetkazgani odam esa qunduz terisini berishga majbur edi.

Teri pul vazifasini o'tagan davr izlari ba'zi bir xalqlarning tilida saqlanib qolgan. Masalan, estoncha "raxa" – "pul" degani, shu tilga yaqin bo'lgan lapland tilida esa "teri", "charm" degan ma'noni bildirgan. Jumladan, Mo'ng'ulistonda toshchoy pul vazifasini o'tagan. Toshchoy choy va yovvoyi o'simliklar bargiga buzoq qoni shimdirilib, g'ishtsimon shaklda presslab, pechkada quritilardi. Har bir toshchoyning og'irligi bir yarim kilogrammgacha bo'lgan. Bulardan tashqari, turli kamyob buyumlar, taqinchoqlar, kamyob, ovlanishi qiyin bo'lgan hayvonlarning tishlari ham pul vazifasini o'tagan.

Inson avvaliga tabiat tayyor holda in'om etgan narsalardan bahramand bo'lib yurgan. Bora-bora esa didi, talabi oshib, boshqalarda yo'q narsani, mol egasini boshqalardan ajratib turuvchi belgilarni qidira boshlgan. Akula tishlari, arslon tishlari yoki nodir chig'anoqlarni taqinchoq siqatida osib yurish yarashmaydimi?

Ko'pchilik olimlar xuddi shu chig'anoqlar dastlabki pullar bo'lgan deb hisoblashadi. Ularning orasida eng mashhuri kauri chig'anog'idir. Kaurining taqdiri qiziq! Maldiv va Lakkadiv nomli kichkinagina, ovloq orollardan u pul sifatida er yuzining shimoliy yarim sharidagi ko'p joylarga tarqalgan. Uni Hindistonda va Seylonda, Siam va Afrikada bilishardi. U vatanidan uzoq bo'lgan Qadimgi Nineviya xarobalaridan, Boltiq dengizi qirg'oqlaridan, shuningdek, qadimiy Germaniya va Angliya, Shvesiya va Fransiya qabristonlaridan topilgan.

Kauri evaziga hohlagan mahsulotni, hatto odamni sotib olish mumkin bo'lgan. Yosh qul qizni besh qop kauriga sotib olsa bo'lardi.

Bir “qop” yoki o’n “bosh”da 20 ming dona chig’anoq bo’lardi. Ellik qavat “ip”dagi chig’anoq bir “bosh”ni tashkil qilardi. Har bir qavat “ip”ga qirq donadan chig’anoq terilgan bo’lardi.

Chig’anoqlar bobida Kaliguli ismli imperator davrida nihoyatda antiqa va ibratli voqea bo’lib o’tgan. Rimning bu imperatori tentaklikda hammadan ham oshib tushgan. Bu mansabparast mustabid fuqarodan o’ziga xudo singari sig’inishni buyurgan. U hatto otini senatga olib kirib, Rim imperiyasini konsuli deb e’lon qilmoqchi bo’lgan. Hashamatga o’ch bo’lgan imperator imperiya xazinasini sovurib bitirgan. Imperator pul tugaganda dengiz chig’anoqlarini to’plab pul o’rnida ishlatmoqchi bo’lgan. Lekin maqsadiga yeta olmagan.

Agar X asr arab sayyohlarining gapiga ishonsa, kauri chig’anoqlari vatani Lakkadiv oroli qirolichasi Kaliguli erisha olmagan narsaga erishgan. Qirolichaning xazinasini bo’shab qolganda u fuqaroga kokos palmasining shoxlarini dengizga tashlashga buyuruq bergan. Tez orada ushbu shoxlarga kauri chig’anoqlari molyuskalari yopishib olgan. Bu molyuskalarni terib, go’shti tozalansa, pul tayyor bo’lgan.

Dengizning kop-kop deb ataladigan chig’anoqlaridan ham pul sifatida foydalanganlar. Uni Tinch okeanining Vankuver orolidan yig’ib olishar, shakli jihatidan mitti fil tishiga o’xshab ketardi. Boshqa turli-tuman buyumlar: it tishi, odama va hayvonlarning bosh suyagi, qalampir, poxol, belkurak, paxta, bir parcha gazlama, tamaki bargi ham pul vazifasini o’tagan.

Karolina orollarida katta tegirmon toshidek toshlar pul vazifasini o’tagan. Bu yerga esa tosh Palaussa orolidan keltirilar edi. Nihoyat odamlar ham pul vazifasini o’taganlar. Markaziy Afrikada yaqin o’tmishda qul pul birligi hisoblanar va qimmatini jihatidan 30 bo’lak chitga yoki 6 ho’kizga teng edi.

Olimlar dunyodagi ko’p tillarda pul va hayvon bir xil yoki umumiy negizi o’xshash so’zlar bilan ifodalanishiga anchadan beri e’tibor bermoqdalar. Masalan, qadimgi rimliklar pul va hayvonni “pkunia”, yunonlar esa, “ktema” deyishgan.

Buning asorati hozirgi zamon tillarida ham qolgan. Inglizcha “impikt’yunies” so’zi “puli yo’q odam” degani, so’zma-so’z tarjima qilinganda “hayvoni yo’q” degan ma’noni bildiradi. Dunyodagi ko’pchilik xalqlar o’rtasida hayvon boylikni ko’rsatuvchi vosita bo’lgan. Gomer she’rlarida qahramonlarning boyligi ixtiyoridagi chorvasi bilan belgilanadi. Qadimgi Germanlarda ham boylik qancha bosh moli borligi bilan belgilangan. Qadimgi Eronda tabiblarga xizmat haqiga hayvon berilgan, bu odat hozirgacha ham saqlanib qolgan. Lekin hayvon ham ishonlar o’rtasidagi tovar ayirboshlashda munosabatlarga to’la javob bermaydi.

Insonlar o’rtasidagi pul sifatida tanlangan tovar shunday qadr-qiymatga ega bo’lsinki, bunday tovarning ozginasi ham katta qiymatga ega bo’lsin. Shundagina pul olib yurilganda og’ir tushmaydi, istagan joyda, istagan narsaga sarflasa bo’ladi. Bunday tovarni sifatini yo’qotmagan holda bir xil bo’laklarga bo’linishi zarur. Bu narsa chakana savdo muomalasiga ayniqsa qo’l keladi. Uning qiymati hamisha o’zgarmay tarishi kerak. Shundagina uni uzoq vaqt saqlash, yig’ish, yashirib qo’yish mumkin bo’ladi. Bunday tovar – pul yordamida xarid qilishni, sotishdan istagan muddatingizgacha ajratib qo’yish mumkin bo’ladi.

Bunday tovar uzoq vaqt izlandi. Hayotning o’zi, zaruriyat boshqalarni elakdan o’tkazib, metallni tanlamaguncha odamlar ko’p narsalarni sinab ko’rishdi. Uchta buyumni: qadimgi sharq pichog’ini; shu pichoqning tig’sizi va nihoyat pichoqning sopiga o’rnatilgan xalqani ko’z oldingizga keltiring. Metall pullar shu tariqa paydo bo’ldi va rivojlandi. Avvaliga ular oddiy uy-ro’zg’or buyumlari, qurollar: bolta, pichoq, juvoldiz, mix, kamon o’qining uchi, nayza, idish bo’lgan. Bularga hamma tovarlarni almashaverganlar. Ammo, bora-bora bulardan ba’zilari alohida tovar-pul bo’lib qoldilar. Nemis tangasining “pfening” deb atalishining o’zi uning kelib chiqishidan darak beradi. Aslida bu tovardir (nemischada pfenne).

Dastlabki davrda ma’lum bir buyum shakliga ega bo’lgan metallar keyinchalik shaklini va vaznini o’zgartirib, xalqa shakliga kelgan. Hatto odamlar metallardan maxsus pul yasay boshlaganlarida ham ularga odatga ko’ra uzoq vaqtgacha pulni turli buyumlar shaklida yasaganlar. Masalan, Xitoyda o’sha davrning kiyimi shaklidagi bir necha metall – “ko’ylak” yoki “ko’rpacha” shaklidagi pullar bo’lgan.

Asta-sekin metallardan qilingan pullar o'zlarining mustaqil shakllariga ega bo'la boshlagan. Meksikada bu pullar "T" harfida misdan quyilgan. Hindi-Xitoyda yo'g'on mis chivichalar, Shimoliy Amerikada qo'rg'oshin soqqachalar, Afrikada taqaga o'xshash temir parchasi, Kombodjada temir rombchalar pul xizmatini o'tagan.

Qadimiy yunonlarda to'rt qirrali temir chivichalar pul sifatida xizmat qilgan. Shunisi borki, pul birligiga oltita temir chivich qabul qilingan bo'lib, bularning bir siqim (draxma) qilib ushlash mumkin edi. "Draxma" nomi ana shundan kelib chiqqan bo'lib, hozir ham yunonlarda pul birligi bo'lib qolgan.

Insoniyat oltinni qadim zamonlardan beri bilganlar. Oltin odamlarni hamisha o'ziga qiziqtirib kelgan. Qizg'ish tovlanadigan sariq metall bezak bo'lib xizmat qilgan. Keyin barcha bezaklar singari u ham pul xizmatini qiladigan tovarga aylangan.

Oltin – asl metall. Chunki u tabiatda sof holda, ximiyaviy aralashmalarsiz bo'ladi. Unga nam va ko'pchilik kislotalar ta'sir qilmaydi. U osongina kesiladi, eriydi, juda yaxshi tarashlanadi, qancha tursa ham jilvasi o'zgarmaydi.

2. Dastlabki tangalarning zarb etilishi

Bir parcha metallga tamg'a bosishni o'ylab topib, shu bilan metallni tanga qilib qo'ygan kishi kim ekan?

Bunday fikr savdogardan boshqa kimning xayoliga ham kelar edi?

Buni birinchi galda, martabasi ulug', ko'pchilikning ishonchiga sazovor bo'lgan katta savdogar o'ylab topgan bo'lsa kerak. Tamg'a bosilgan quyma pullar yaqin tevarak-atrofdan tortmasdan qabul qilinadigan bo'lgan. Uni xuddi bizga o'xshab shunchaki sanayverishardi. Tez orada boshqa savdogarlar ham shunday qila boshlaganlar.

Miloddan avvalgi 45-yillar Rimda Tit Kariziy magistrliги davrida ma'buda Yunona ibodatxonasi qoshidagi taksolda o'ngini bejirim ayol boshining surati bezab turgan, ostida "Moneta" (yunon tilida "bashoratchi") deb yozilgan dinor pul zarb etilgan. Aslida bu nom ma'buda sifatlaridan biridir, keyinchalik Yunona Moneta zarb etish ilohiga aylanadi. Ma'budaning dastlabki sifati o'shandan buyon metall pullar nomiga nisbat berilib, ularni moneta deb atalgan va hozirgacha shunday atalib kelinmoqda.

Rim dinori zarb etilishiga qadar tangalar bir necha asrli tarixiy yo'l bosib o'tishga ulgurgan edi. Juda qadim zamonlardan beri tangani afsonaviy qahramonlar va ma'budalar yaratadi, degan aqida yashab kelar edi. Qadimgi yunon manbalarida tanganing kelib chiqishi haqida uchta faraz borligi qayd etiladi. Birinchi farazga binoan, tangalar ilk bor kichik Osiyo davlati Lidiyada zarb etila boshlagan, ikkinchi faraz bo'yicha, kumush tangani Argoss podshohi Fidon kashf etgan, uchinchi farazda, tanganing yaratilishi Eolidadagi Kima shahrining afsonaviy shohi Midasning xotini malika Germodik nomi bilan bog'liqligi aytiladi.

Pulning paydo bo'lishi qadimgi zamonlarda taraqqiy etgan madaniyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarining qonuniy oqibatidan kelib chiqqan tabiiy hodisadir. To'var ayirboshlashning uzoq hamda murakkab jarayoni va chakana savdoning rivojlanishi to'var-pul hamda qimmatbaho buyum (yombi) ishlatish bosqichidan o'tib, oxir-oqibatda ma'dan tanga paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi tangalarning o'ng yoki tersida ularning o'lchovi to'g'ri, og'irligi to'la ekanligini tasdiqlovchi rasm-muhri bilan qimmatbaho buyumdan (yombi) farqlanadi.

Rasm-muhrlarda xilma-xil geometrik shakllar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, sher, toshbaqa, dengiz mushugi, boyo'g'li va shu kabilar tasvirlanardi.

Faqat oradan ancha vaqt o'tgandan keyin tangalarda yozuvlar, miloddan avvalgi IV asr o'rtalarida hamda Aleksandr Makedonskiy davridan boshlab podshohlar va ma'budalarning tasviri paydo bo'ldi.

Lekin birinchi tanganing qayerda zarb qilinganligi hozirgacha fanda bahsli masala. Lekin ko'pchilik olimlarning fikricha dunyoda dastlabki tanga Kichik Osiyodagi eng qadimgi davlatlardan biri Lidiyada zarb qilingan.

Miloddan ancha oldin Kichik Osiyoning g'arbiy qismida qudratli quldorlik davlati Lidiya mavjud bo'lgan. Bu davlat Yunoniston va o'zining sharqiy qo'shnilari bilan keng savdo-sotiq

aloqalarini olib borardi. Lidiya tuprog'i oltinga boy bo'lgan. Lidiyaliklarning qadimgi oltin va kumushning tabiiy qorishmasi – elektrumdan taxminan miloddan avvalgi 640-630-yillarda zarb qilingan. Va bu tanga stater deb atalgan. Uning bir tomoniga yugurib ketayotgan tulkinning tasviri tushirilgan. Tulki Lidiyada muqaddas jonivor hisoblangan. U lidiyaliklarning bosh xudosi – Bassareyning ramziy tasviri edi. Staterning orqa yo'l-yo'l botiq tomonida hech narsaning tasviri solinmagan.

Lidiyaliklardan bir necha o'n yillar keyin qadimgi yunonlarning polislaridan biri Eginada zarb qilingan. Ular lidiyaliklardan mustaqil va farqli bo'lgan, kumushdan tanga zarb qilganlar. Eginaliklarning tangalari biroz keyinroq bo'lsada, lidiyaliklardan mustaqil ravishda zarb etilgan edi. Mashhur podshoh Krez (mil.avv. 561-546 yy.) – uning ismi behisob boyliklar ramziga aylangan – davridan keyin bimetallizmga (tilla va kumushning birga ishlatilishi) asoslangan tanga sistemasi tadbiiq etilib, bu sistema Eronda keng tarqalgan edi. Lidiya va Eginadagi tanga zarb etish ishi keyinchalik butun yunon koloniyalariga, Eronga, keyinchalik esa rimliklarga va boshqa varvar qabilalariga tarqala boshlagan.

Qadimdan tanga sistemalarida, masalan, Milet, Fokey, Egin, Evbiy sistemalarida har bir vazn standarti uchun maxsus zarb etilgan turli nominallar ishlatilardi. Makedoniyaning gullab-yashnashi, qo'li ustun kelishi hamda Aleksandr Makedonskiyning davlati bunyod etilishi davrida tangalar nominali yagona normaga keltirila boshlandi. Bu vaqtda tanga zarb etishda asos qilib 17,44 gr tetradraxm hamda 4,36 draxmli attika sistemasi ishlatila boshlangan. O'sha davrdan boshlab bir necha asrlar mobaynida attika tizimi Ellada davlatlarida hamda O'rta Osiyoning janubiy tumanlarida asosiy tizim bo'lib kelgan.

Rim afsonalarida tanganing paydo bo'lishi boshqacha hikoya qilinadi. Qadimiy rimliklarning ko'pdan – ko'p xudolari orasida hamma boshlang'ich narsalarning, ixtirolarning – avval-oxirning mutasaddiysi bo'lgan xudo bor ekan. Unga vaqt ham tobe bo'lgan. Bu xudoni Yanus deb atashar edi, uni rimliklar ikki tomonga qarb turgan ikki yuzli kishi qilib tiasvirlaganlar.

Yilning birinchi oyini Yanus sharafiga yanvar deb ataganlar. Rim urush boshlasa Yanus ibodatxonasining eshiklarini ochishar, urush tugasa – yopishar ekan.

O'rta Osiyo ilk pul paydo bo'lgan joylar sirasiga kirmaydi: buning asosiy sababi - ijtamoiiy-iqtisodiy rivojlanishning sustligidnr. Bu erda tanga paydo bo'lgunga qadar talay asrlar mobaynida ayirboshlash, savdoning turli-tuman, hatto qimmatbaho buyum (shakllari hukmron edi). Ammo O'rta Osiyo xalqlari o'z hududlarida miloddan avvalgi birinchi I ming yillikning so'nggi uch yuz yilligida paydo bo'lgan ma'dan pul haqida tasavvurga ega bo'lmagan deyish mutlako noto'g'ri. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyo qadimgi fors ahamonnylar davlati tarkibida bo'lgan. Bu davlatda esa miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab to IV asrning 30-yillarigacha oltin (darik) hamda kumush (sikl) tangalar zarb etilardi. Ma'lumki, ahamoniylar qo'shinlarining asosiy qismini o'rta osiyoliklar tashkil qilishgan: so'g'd, baqtriya, xorazm va sak qabilalari fors podsholarining Yunonistonga qilgan yurishlarida faol ishtirok etganlar. O'rta Osiyolik jangchilar ahamoniylar saltanatining turli shaharlarida garnizon xizmatini ham o'tashar edi. Hech shak-shubha yo'qki, o'sha davrdayoq O'rta Osiyo xalqlarining ko'pchilik qismi ma'dan pulni yaxshi bilgan, ammo bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotning ma'lum shart-sharoitlari tufayli bu pullar savdo-sotiq muomalasiga aylanmay qolgan. Hozirgacha O'rta Osiyo hududidan miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid dalil qilib ko'rsatishga arzigulik tanganing biron-bir nusxasi haqida xabar yo'q. O'tgan asrda Turkmanistonning Karki shahrining atrofida ahamoniylar davlatining oltin tangasi darik topilgani haqidagi mujmal xabar bundan mustasno. Qadimdan bu tangalarni "tirandoz" deb atashardi, chunki tanganing bir tomonida tiz cho'kkan ko'yi kamon otayotgan podsho tasviri aks ettirilgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, ahamoniylar davlatining oltin tangalariga berilgan "darik" nomi mil.avv. 522-486-yillari hukmronlik qilgan podsho Doriy Gistasp nomi bilan bog'liq, chunki dastlab bu tangalar o'sha paytdan boshlab muomalaga chiqarilgan.

Mil.avv. IV asrning uchinchi choragida qudratli ahamoniylar saltanati Aleksandr Makedonskiy qo'shinlari zarbasidan quladi. Mil.avv. 330-327-yillarda qadimgi zamonning eng zabardast lashkarboshisi O'rta Osiyoni zabt etish bilan band bo'ldi. Tub yerlik aholi uning o'sha paytdagi ilg'or qo'shinlariga qarshi qahramonona kurash olib borgan. Makedonskiy qo'shinlari shahar va qishloqlarni vayron qilgan. Shunga qaramay, O'rta Osiyoning janubiy tumanlari A.Makedonskiy davlati, keyinroq esa uning sarkardasi Salavka o'rnatgan saltanat tarkibiga qo'shlishining ijobiy tomonlari ham yo'q emas. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin O'rta Osiyo Ellada davlati asoratiga tushib qoladi: ilg'or yunon madaniyati sharqning eng olis nuqtalarigacha kirib boradi, Ellada ta'siridagi mamlakatlar o'rtasida mol ayirboshlash va madaniy aloqalar kuchayadi.

A.Makedonskiy jangchilari o'zlari bilan birga muomaladagi tangalarni olib kelishlari shubhasizdir, ammo ular yerlik aholi o'rtasida urf bo'lganmikin? Fanda bu farazlarni tasdiqlovchi biron-bir ma'lumot yo'q. O'rta Osiyo hududida A.makedonskiy davlatiga mansub tangalar topilmagan. Surati Rtveladzening "O'rta Osiyoning qadimgi tangalari" nomli kitobda berilgan A.Makedonskiyning tetradrahmasi Oybek nomidagi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi fondidan olingan bo'lib, Ellada tangashunosligida eng nodir nusxalaridan hisoblanadi. Uning o'ng tomonida qiyofasi Aleksandrga o'xshab ketadigan, arslon terisi yopingan Gerakl, tanganing ters tarafida qo'lida qush tutgan Zevsning taxtda o'tirgan qiyofasi berilgan tasvirlangan.

O'ng tomonida: boshi o'ng tomonga
qush tutib

Tersida: uzatilgan o'ng qo'lida

Burilgan shoh tasviri

taxtda o'tirgan Zevs tasviri. Chap
qo'lida uzun aso, yunon tilida
"Aleksandr" degan yozuv.

Kumush tetradraxma. Diametri – 28 mm; Vazni – 17,5 gr.;

A.Makedonskiyning vafotidan so'ng uning saltanatiga kiruvchi sarkardalar – diadoxlar taxt uchun shafqatsiz kurash boshab yuborganlar. Makedoniya davlatining xaroblarida bir necha yirik-yirik ellin davlatlari paydo bo'lgan.

O'rta Osiyoning janubiy hududlari mil.avv. 312-yilda Salavka I Nikator tashkil etgan salavkiylar imperiyasining bir qismiga aylanadi. Baqtriyada (hozirgi Afg'onistonning shimoli, Balx) zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo'lishi salavkiylar davlatining sharqiy viloyatlaridagi satrapi (voliysi) keyinchalik uning podshohi bo'lmish Salavkaning o'g'li (Salavka va mashhur Sipatmenning qizi Apamadan tug'ilgan farzand) Antiox I nomi bilan bog'liq. Boshida Salavka I va Antiox I larning mushtarak emissiyasida kumush tangalari, keyinchalik esa yagona hukmdor sifatida Antiox I tangalari zarb etila boshlandi. Ularning orasida g'oyat qimmatbaho tangalar: stater, draxma va tetradraxmalar bor edi. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin, mil.avv. so'nggi ikki yuz yillik ichida zarb etilgan Antiox I ning tangalariga taqlidan talay va xilma-xil so'g'd tangalari paydo bo'lgan.

Baholash:rahbatlantirish.

Uyga vazifa :1. Shohrux va Ulug'bek davrida ilm fan qanday rivojlangan bilin kelish.

2.tarqatma materiak,krasvord tuzib kelish..